

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



BARNO UBAYDULLAYEVA

# ETNOPEDAGOGIKA

387.013

U-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

**BARNO UBAYDULLAYEVA**

**ETNOPEDAGOGIKA**

**O'QUV QO'LLANMA**

O'zMU  
TARIX  
FAKULTETI  
ARM

Toshkent  
“Ma'rifat”  
2024

UO'K: 37.013:39(075.8)

KBK: 74.6ya73

U 13

Ubaydullayeva Barno. Etnopedagogika. O'quv qo'llanma.

-T.: "Ma'rifat", 2024. 224 bet.

O'quv qo'llanma "5121400 – Antropologiya va etnologiya" ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

"Etnopedagogika" o'quv qo'llanamasida etnopedagogikaning predmeti, fan sifatida shakllanishi va hozirda uning fanlar tizimidagi o'rni, xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning o'zaro aloqadorligi va farqi, etnos va bola tarbiyasidagi tadqiqotlarida turli nazariy metodologik yondashuvlar, xalq pedagogikasi omillari va vositalari, o'zbek etnopedagogikasi tarixi, oilaviy tarbiya xususiyatlari, go'dak tarbiyasidagi xalq an'analari, o'g'il va qiz bolalar sotsializatsiyasidagi farqli xususiyatlar, an'anaviy va zamonaviy ijtimoiy institutlarning etnopedagogikaga ta'siri bo'yicha masalalar o'rin olgan. Umuman, qo'llanmada ikki yo'nalishda: etnopedagogika faniga oid va o'zbek etnopedagogikasiga oid ma'lumotlar berilgan.

UO'K: 37.013:39(075.8)

KBK: 74.6ya73

U 13


**Taqrizchilar:**

N.N.Narziyev – "Antropologiya va etnologiya" kafedrasi dotsent v.b.,

PhD

A.R.Qayumov – O'zR Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi,  
tarix fanlari nomzodi

O'quv qo'llanma O'zbekiston Milliy Universitetining 2023 yil "31"  
maydag'i 10-sonli buyrug'i asosida nashr etishga tavsiya etilgan.



## SO'ZBOSHI

XX asrning ikkinchi yarmida dunyoda yuz bergan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar etnologiya sohasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning miqdor jihatdan o'sishi va sifat jihadan yangilanishiga zamin yaratdi. Natijada qator yangicha nazariyalar va ilmiy kontseptsiyalar yaratilib, tadqiqotchilar tomonidan etnologiyaning o'ziga xos mustaqil soha va yo'nalishlari rivojlantirildi. So'nggi yillarda xorij fani etnopedagogika, etnopsixologiya, etnoekologiya, etnosotsiologiya va boshqa shu kabi qo'shaloq yo'nalishlarning shakllanishi hisobiga boyib, istiqbolli rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston fani ham dunyo fanining tarkibiy qismi bo'lishi va u bilan bog'liq tarzda rivojlanishi lozim. Shuning uchun yurtimizda etnologiya va antropologiya sohalarini taraqqiy ettirish va bu sohalarda yetuk mutaxassislarni tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Milliy universitetida "Antropologiya va etnologiya" yo'nalishida bakalavriat va magistratura yo'nalishi ochilishi va kafedra hamda laboratoriya tashkil etilishi misoldir.

Yangi vazifa kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashdir. Mazkur o'quv qo'llanmasi ushbu vazifani bajarish uchun qo'yilgan qadamdir. Shu vaqtga qadar O'zbekistonda etnopedagogika fani uchun biror o'quv qo'llanamaning mavjud emasligi bu borada qo'yilgan ilk qadamdir deyishimizga asos bo'ladi.

"Etnopedagogika" o'quv qo'llanamasida etnopedagogikaning predmeti, fan sifatida shakllanishi va hozirda uning fanlar tizimidagi o'rni, xalq pedagogikasi va etnopedagogikaning o'zaro aloqadorligi va farqi, etnos va bola tarbiyasidagi tadqiqotlarida turli nazariy-metodologik yondashuvlar, xalq pedagogikasi omillari va vositalari, o'zbek etnopedagogikasi tarixi, oilaviy tarbiya xususiyatlari, go'dak tarbiyasidagi xalq an'analari, o'g'il va qiz bolalar sotsializatsiyasidagi farqli xususiyatlar, an'anaviy va zamonaviy ijtimoiy institutlarning etnopedagogikaga ta'siri bo'yicha masalalar o'rin olgan. Umuman, qo'llanmada ma'lumotlar ikki yo'nalishda berilgan: etnopedagogika faniga oid va o'zbek etnopedagogikasiga oid ma'lumotlar.

Mazkur o‘quv qo‘llanma MDH davlatlarida xuddi shu fan bo‘yicha yaratilgan qo‘llanma va darsliklardan foydalanib va muallifning ilmiy tadqiqot materiallari asosida tayyorlandi. “Etnopedagogika” o‘quv qo‘llanmasi nafaqat “Antropologiya va etnologiya” yo‘nalishi talabalari balki, shu bilan birga barcha etnolog va pedagoglar uchun qiziqarli bo‘ladi, ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

## **1-mavzu. Kirish. Etnopedagogikaning predmeti va ob'ekti. Maqsad va vazifalari**

**Reja:**

- 1. Etnopedagogikaning tadqiqot predmeti va ob'ekti**
- 2. Boshqa fanlar bilan aloqadorligi, vazifalari va ahamiyati**
- 3. Etnopedagogikani tadqiq etish metodlari**

**1. Etnopedagogikaning tadqiqot predmeti va ob'ekti** Etnopedagogika – etnologiya va pedagogikaning qo'shilishidan vujudga kelib (yunoncha – ethnos va pedagogika) xalqning tarbiya va ta'lim berish uslubi ma'nosini bildiradi. Internetda etnopedagogika nima deb savol bersangiz Vikipidiyada shunday ta'rif berilgan: "Etnografiya, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika yo'naliishlari oralig'idagi mustaqil fan". Darhaqiqat etnopedagogikani fan sifatida shakllanishida etnografiya, sotsiologiya va psixologiya hamda pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning umumlashuvi sabab bo'lgan.

G.N.Volkovning fikricha, "etnopedagogika – bu xalq ommasining yosh avlod tarbiyasiga doir tajribalari, ularning pedagogik maslaklari haqidagi, maishiy turmush pedagogikasi, oila, qabila, xalq va millat pedagogikasiga oid fan". Xalq pedagogikasi esa fanining predmetidir. Etnopedagogikaning predmeti xalq pedagogikasidir. Etnopedagogika fan sifatida xalq pedagogikasini tushuntiradi va uni zamonaviy sharoitlarda qo'llash yo'llarini tavsiya etadi, etnik guruhlar tajribalarni yig'adi va tadqiq etadi. Etnopedagogikaning ob'ekti va predmet doirasi quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi:

- oilaviy turmush pedagogikasi;
- maqollar va naqllar;
- topishmoqlar;
- xalq qo'shiqlari;
- bolalar ijodi va ular yaratgan qo'g'irchoqlar;
- bola va o'smirlar muhiti va uning pedagogik funksiyalari;
- alla va onalar pedagogikasi;
- turli xalqlar pedagogik madaniyatining umumiyligi va boshqa.

### **2. Boshqa fanlar bilan aloqadorligi, vazifalari va ahamiyati**

Barcha gumanitar va ijtimoiy fanlar kabi etnopedagogika ham o‘z holicha rivojlana olmaydi. Fanlararo soha sifatida tarkib topgan etnopedagogika boshqa yondosh fan sohalari bilan aloqadorlikda rivojlanadi.

Eng yaqini albatta bu pedagogikadir. Ayniqsa, ijtimoiy pedagogika, xalq pedagogikasi etnopedagogikaga juda yaqin. Ko‘pchilik hatto xalq pedagogikasini u bilan sinonim sifatida ham qo‘llashadi. Etnopedagogika va xalq pedagogikasi orasida aniq chegara qo‘yish bo‘yicha turli bahs munozaralar mavjud.

Akademik G.N.Volkov: “...xalq pedagogikasi tajriba va uni tavsiflashdir, etnopedagogika – esa nazariy fikrlar va fan sohasidir” deydi. Bu haqidagi fikrlarimizni keyingi darsda batafsil ko‘rib chiqamiz.

Etnologiya etnos bilan bog‘liq barcha jabhalarni tadqiq etar ekan, etnopedagogika shubhasiz etnologiya bilan aloqadorlikda tarkib topdi va rivojlanmoqda.

Etnopedagogika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir soha bu etnopsixologiyadir. Etnopsixologiyada ham etnik ong, etnik mansublik, xulq-atvor va o‘zaro ta’sir fenomenologiyasi turli tomondan o‘rganiladi. Aynan shu hodisalarni ijtimoiy aspektda etnosotsiologiya izohlaydi. Xalqlarning moddiy madaniyati va madaniy qadriyatlarini o‘rganish madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi mumkin. Bu shuni isbot qiladiki, etnopedagogika – bu metodologik asosi etniklikka yo‘naltirilgan inson va jamiyat haqidagi fanlararo ilmiy yo‘nalishdir.

Etnopedagogikani arxeologiya bilan aloqadorligi arxeologik materiallardan xalq tarbiyasiga doir tajribalar izini topish bilan izohlanadi. Etnopedagogika tarbiya tajribalari, an’analarni o‘rganadi. Albatta bu tarixiylik, o‘tmish degani. SHu bois, etnopedagogika tarixiy manbalar va ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi. Bir so‘z bilan aytganda tarbiya bilan bog‘liq har qanday tarixiy meros etnopedagogikaning asosidir.

Tilshunoslik va folklorga oid materialgarsiz etnopedagogikani tassavur qilib bo‘lmaydi. Folklor etnopedagogikaning manbalaridan biridir. Demak, etnopedagogika tilshunoslik va folkskor bilan ham uzviy aloqador. Qisqasi, etnopedagogika – turli etnoslar pedagogikasi va xalq tarbiyasini o‘rganadigan soha bo‘lgani uchun bevosita an’anaviy tarbiya madaniyati, maishiy turmush bilan aloqador. Shuningdek, u ijtimoiy va umumiyl

pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, dinshunoslik kabi gumanitar va ijtimoiy fanlar ma'lumotlaridan keng foydalanadi.

**Etnopedagogikaning vazifalari** ijtimoiy buyurtmaga ko'ra shakllanadi va aniqlanadi. L.N.Berejnova "dunyo jamoatchiligi madaniyatlararo hamkorligi yangi sharoitlarda yosh avlod etnosotsializatsiyasi yo'llarini aniqlashda etnopedagogikaning dolzarb" soha ekanligini ko'rsatib o'tadi. Agar etnopedagogikaga – etnos tarbiya usuli, tarbiyaning milliy modeli sifatida yondashadigan bo'lsak, unda bu masala eng dolzarb masaladir.

So'nggi yillarda etnopedagogikaning fan sifatidagi asosiy vazifasi – har bir etnosga xos bo'lgan shaxs sotsializatsiyasi jarayonidagi etnik qonuniyatlarini ochishdir, deb tushuniladi. Demak, etnopedagogika shaxs sotsializatsiyasi jarayonini o'rganadi, bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash haqidagi xalq bilimlarini yig'adi va tizimlashtiradi, etnik jamoa madaniy xususiyatlarini saqlaydi va rivojlantiradi. Etnopedagogika shaxs sotsializatsiya jarayoni qonuniyatlarini va turli madaniyat va jamiyatlarda bu jarayonning etnik xususiyatlariga o'z e'tiborini qaratadigan fan sifatida talqin qilinishi to'g'ridir. Albatta, V.I.Matis haqli ravishda qayd etib o'tganidek, etnopedagogikaning vazifalari va tadqiqot doirasi o'zgarmay qolmaydi, uning vazifalari ijtimoiy buyurtmaga bog'liq tarzda shakllanib va aniqlanib boraveradi. Milliy tarbiya tizimini ham o'z ichiga olgan etnopedagogika millat tarbiyaviy salohiyati va jamiyatning tarbiyaga qo'ygan talablari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib boraveradi.

Etnopedagogikani fan sifatida o'rganish quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- talabalar tomonidan etnopedagogikaning nazariy asoslarini, xalq an'anaviy tarbiyasiga oid bilimlarni o'zlashtirish;
- xalq pedagogikasi va mashhur allomalarining pedagogik g'oyalarining o'zaro bir-birini boyitadigan ijodiy aloqadorligini bilish;
- hozirgi bosqichda yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda xalq pedagogikasi va xalq madaniyatining roli haqida bilimga ega bo'lish;
- ko'pmillatli jamiyat sharoitida tolerantlik, o'z madaniyati va boshqa millatlar madaniyatini hurmat qilish, insonparvarlik prinsipida bolalar bilan ishlash ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish;

- talabalarda etnopedagogika manbalarini o‘rganish, ularni tahlil qilish bo‘yicha mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini o‘stirish va ularda zamonaviy ta’lim jarayonida bolalar ta’lim tarbiyasi bo‘yicha ilg‘or an’anaviy xalq bilimlarini integratsiyalash usul hamda metodlarini shakllantirish.

**Ahamiyati:** Etnopedagogika zamonaviy tarbiya va o‘qitish metodlarini xalqlarning an’anaviy madaniyati, o‘zga xos xususiyatlariga moslashtirishga ko‘maklashishda, shuningdek, an’anaviy xalq pedagogikasining qimmatli metodlaridan foydalanishda va ularni saqlashda katta amaliy ahamiyatga egadir. Chunki, etnopedagogika atamasi provardida predmeti u yoki bu etnik guruhning “psixologik qiyofasiga” ta’sir qiluvchi urug‘, qabila xalq va millatning pedagogik madaniyati bo‘lgan fanning mohiyati va mazmunini aniq va to‘la anglatadi.

XX – XXI asrlar oralig‘i etnik tusdagagi yashirin urushlar ketyapti sababi, har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ko‘p hollarda bu jamiyat tomonidan inobatga olinmaydi. Ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ham etniklikni qisqartirish hisobiga yoshlarga ko‘pmadaniyatga xos ta’lim berishga qaratilgan. Ammo inson o‘zining ma’naviy kelib chiqishi, tili va madaniyati negizlarini bilishga xaqlidir. Faqt shu asosdagina boshqa xalqlar madaniyatini tushunishi, umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishi va o‘zlashtirishi mumkin. SHu bilan birga uchinchi ming yillikda insoniyat shunday bir tanlov oldida turibdiki, provardida insoniyatni millatsiz jamiyat bilan umumbashariy yagona madaniyatga birlashtiradigan yo‘l- madaniyatlar yaqinlashuvi va assimilyatsiya qilinishni, yoki insoniyat nafaqat bir etnosning balki butun insoniyatning mulki va boyligi bo‘lgan madaniyatlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish yo‘lidan borishi?

Etnopedagogikadan ushbu savollarga ma’lum darajada javob topish mumkin.

### **3. Etnopedagogikini tadqiq etish metodlari.**

Etnopedagogika fan sifatida pedagogik fanlarning oraliq tarmog‘i bo‘lib pedagogika, **etnografiya**, **etnopsixologiya metodlaridan** va o‘zining metodlaridan foydalanadi. M.A.Xayruddinov unga quyidagilarni kiritadi: pedagogikani xalq ta’lim-tarbiyaviy an’analari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish; konkret pedagogik tajribani umumlashtirish; pedagogik muvaffaqiyatlarni qiyosiy tahlil qilish.

Etnopedagogik jarayon va munosabatlarning o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlarini qaror toptirish maqsadida ma’lumotlarni olish etnopedagogik tadqiqotlarning o‘ziga xos metodlari bo‘lib, ular o‘z ichiga: folklor, arxeologik materiallar, yozma yodgorliklar, dala tadqiqotlarini o‘rganish metodlari, tarixiy-pedagogik tahlil metodi, sotsiologik metod, qiyoslash metodi, pedagogik eksperiment, xalq pedagogik hodisalarini nazariy tadqiq etish va boshqalarni qamrab oladi.

Etnopedagogika, an’naviy xalq tarbiyasi tajribalari qonuniyatlarini va xususiyatlarini o‘rganishda pedagogika, etnografiya, etnolingvistika, arxeoliya, etnopsixologiya va sotsiologiya metodlaridan foydalanadi. Etnopedagogika ilmiy tadqiqot usullari an’naviy xalq ta’limi mohiyati, uning g‘oyalari, qadriyatlari, tarkibi, vositalari va shu kabilar haqida ma’lumot olish usullarini o‘z ichiga oladi.

Etnopedagogika quyidagi metodlardan foydalanadi:

1. Umumiy mantiqiy metodlar: analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash, ekstrapolyatsiya (“extra” so‘zidan - “haddan tashqari” va “polio” - “silliqlash”, “o‘lchash”) – bu hodisaning bir qismini kuzatish natijasida olingan xulosani uning boshqa qismi yoki umuman butun hodisaga nisbatan qo‘llashdan iborat tadqiqot usuli).

2. Umumiy ilmiy metodlar: tahlil va adabiyotlardan kontent-tahlil; nazariy tahlil va ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar sintezi; kuzatuv, tajribani o‘rganish va umumlashtirish; eksperiment; ekspert baholash usuli.

3. Tarixiy metodlar: qiyosiy-tarixiy metod (tarixiy-pedagogik jarayonlar qaytarilishi, qonuniyatlarini aniqlash uchun), genetik metod (o‘rganilayotgan hodisalarining kelib chiqishi, sabablari va bosqichlarini aniqlash uchun); struktur metod (butun tizimning alohida elementlari bilan aloqa o‘rtanish uchun) va boshqalar.

4. Sotsiologik metodlar: anketalash va intervyu olish; ijtimoiy kopmpleks modellashtirish metodi va h.k.

Etnopedagogika shular bilan bir qatorda nisbatan o‘ziga xos nazariy va empirik metodlardan foydalanadi.

Nazariy metodlarga quyidagilar: - tarixiy pedagogik tahlil va sintez (tadqiqotning maqsadi, predmeti va vazifalarini aniqlash; turli davrlardagi kishilarning pedagogik g‘oyalari va o‘quv amaliyotini rivojlantirish va boshqalar) kiradi. Tarixiy metod tahlil qilinayotgan etnopedagogik

hodisaning hozirgi holatini chuqurroq anglashga yordam beradi; - rekonstruktsiya (o'tmishdagi pedagogik voqealarni qayta tiklash).

Empirik darajadagiga quyidagi metodlarni kiritish mumkin: - diagnostik (suhbat, intervyu, "xotiralarni eslash"); - observatsion (oila, xalq hayot faoliyatning turli sharoitlarida kuzatish, mehnat natijalari, xalq madaniyati namunalari va h.k.larni o'rganish), - dala tadqiqotlari.

Dala tadqiqoti metodi tadqiqotchining o'rganilayotgan etnik muhitda qolishi va unga ko'nikib yashashiga asoslanadi. (M. Mid va Dj. Uayting kabi amerikalik olimlarning dala tadqiqotlari misol bo'la oladi).

Tadqiqot muddati kamida bir etnik yilni tashkil etishi kerak, uning muddati kalendar yilga nisbatan 2-3 oy oshiqroq bo'ladi. Dala tadqiqoti metodi odamlarning moddiy (anjomlari, turar-joylari, idish-tovoqlari, kiyim-kechaklari va boshqalar) va ma'naviy (urf-odatlari, marosimlari, folklor kabilari) madaniyati, shu jumladan pedagogik madaniyati haqida ma'lumot olishga imkon beradi.

Keyingi yillarda etnopedagogikaga sotsiologik tadqiqot usullari ham keng jalb qilinmoqda. CHunki bolalik davrini o'rganish sotsiologlar, etnologlar, tarixchilar va pedagoglar uchun ham ilmiy ahamiyatga ega. SHu ma'noda bolalik davrini tarixiy sotsiologik va etnologik jihatdan o'rganishni alohida uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Jamiyatda bolalarning o'rni va ularning sotsial-ijtimoiy mavqeい, hayot faoliyati usullari va kattalar bilan munosabati, tarbiya usullari va tartiblari va h.k.;
2. madaniyatda bolalarning ramziy obrazlari va yosh xususiyatlari, balog'atga yetish mezonlari va boshqalar haqidagi ijtimoiy tushuncha, ijtimoiy-me'yoriy tasavvurlar;
3. bolalik davri madaniyati, bolaning ichki dunyosi, uning qiziqish yo'nalishlari, kattalar jamiyatni haqida bolalar idroki, folklori va h.k.

Etnopedagogika jinsiy va yosh bilan bog'liq simvolizm, mehnatning jinsiy va yoshga bog'liq taqsimlanishi kabi an'anaviy-maishiy turmushning boshqa aspektlari, shuningdek, tarbiya sotsiologiyasi va etnopsixologiya bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Etnopedagogika metodologiyasida omillar muhim o'rinni tutadi. Bu o'rinda A. V. Mudrik tomonidan etnosotsiologiyada qo'llanilgan mega-,

makro, mezo va mikroomillarni ko'rsatish mumkin. Etnopedagogikada ham megafaktorlarga planeta, dunyo, makrofaktorlarga – mamlakat, etnos, jamiyat, davlat, mamlakat kishilari, mezofaktorlarga – mahalliy hudud (region, qishloq, shahar, mahalla), mikrofaktorlarga – oila, tengdoshlar va tengqurlar jamoasi, tarbiya ishini olib boruvchi tashkilotlar, turli diniy va xususiy tashkilotlarni ko'rsatish mumkin. Ushbu omillar o'z-o'zicha ishlamaydi, balki, tarbiyalanuvchi va tarbiya beruvchi salohiyatga ta'sir ko'rsatish istiqbollarni aniqlaydi, xalos. Ular faollashuvi uchun muayyan sharoit bo'lish lozim, shunda omillar etnopedagogik hodisalarini rivojlantiradigan harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Qisqasi, turli metodlar orqali tarbiyadagi etnik xususiyatlarni o'rganish etnopedagogik tendentsiyalarni batafsil yoritishga imkon beradi.

Etnopedagogik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish pedagogika, etnologiya, etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnomadaniyat metodlarini o'rganish negizida, shuningdek, etnopedagogikaning fanlararo, sohalararo, sohalar ichki aloqalarini o'rganish asosida olib boriladi.

K.J.Kojaxmetovaning xulosasiga ko'ra, etnopedagogik metodologiyaga oid bilim strukturasi o'z ichiga quyidagi aspektlarni oladi:

- a) etnopedagogika qonunlari; materialistik dialektika, mantiq qonunlari va qonuniyatlar;
- b) kontseptsiyalar: pedagogika, etnopedagogika, etnomadaniy ta'lim, ko'p madaniyatli ta'lim, gumanitar ta'lim, sotsiomadaniy taraqiyot, sotsium mentaliteti shakllanishi, madaniyatlararo ikki tilli ta'lim, davlat identikligi, ta'lim, til sohasida davlat siyosatining shakllanishi, fuqaroda yangi sotsioqtisodiy xulqning shakllanishi;
- v) nazariyalar: pedagogika, etnopedagogika;
- g) prinsiplar: materialistik dialektika, mantiq, pedagogika, etnopedagogika;
- d) gipoteza ilmiy anglashning usuli sifatida;
- ye) metodlar;
- yo) faktlar: ilmiy, pedagogik, etnopedagogik;
- j) kategoriyalar: materialistik dialektika, pedagogika, etnopedagogik fanni yuritish, etnopedagogik tamoyil, etnopedagogika, etnopedagogik g'oya, etnopedagogik paradigma, etnopedagogik manbashunoslik, etnopedagogik ta'lim, etnopedagogik tarbiya, etnopedagogik faoliyat, etnopedagogik mentalitet, metodologik qonuniyat;
- z) terminologiya: etnopedagogik kontseptsiya, etnopedagogik tafakkur, etnopedagogik qadriyat, xalq tarbiyasi, milliy tarbiya, etnomadaniy ta'lim, etnopedagogik tadqiqot,

etnopedagogik tadqiqotning baholash mezoni va h.k. Mazkur tizimga qo'shilgan holda yana aytish mumkin-ki, har bir o'rganilayotgan hodisa turli madaniyatlarda o'ziga xos tendentsiyalarga ega.

Etnopedagogik yondashuvda masalani tadqiq etish uchun etnopedagogika metodologiyasining mohiyatni tushunib olish muhimdir. Tadqiqotchilarning fikricha, etnopedagogika metodologiyasining bir necha darajasi mavjud bo'lib, uning birinchi darajasiga etnoijitmoiy rolli yondashuvni kiritish mumkin. Mazkur yondashuv kishilarning maishiy turmushidagi etnik tomonlarga tegishli xulq atvorlarni tushunish, ularning o'zaro munosabatlardagi o'ziga xoslikni aniqlashga yordam beradi.

Etnopedagogika metodologiyasining ikkinchi darajasi – dunyoqarashga oid bo'lib – u o'z ichiga bola shakllanishi va rivojlanishida mentalitet, til, tabiat, mehnat, din kabi omillarning o'rni qandayligini o'rganishni yordam beradi. Dunyoqarash kundalik tajriba yoki turli qarashlarga doir ustakovkalar ta'siri natijasida stixiyali tarzda shakllanishi yohud ongli tarzda fundamental g'oyalar, ideallar va tamoyillar vositasida tarkib topishi chuqur ilmiy bo'lishi, balki, diniy bo'lishi mumkin.

L. N. Berejnova "dunyo jamoatchiligi madaniyatlararo hamkorligi yangi sharoitlarda yosh avlod etnosotsialitsiyasi yo'llarini aniqlashda etnopedagogikaning dolzarb" soha ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu to'g'ri, L.N.Brejnova bu o'rinda etnopedagogikaga fan sifatida yondashmoqda. Agar etnopedagogikaga – etnos tarbiya usuli, tarbiyaning milliy modeli sifatida yondashadigan bo'lsak, unda bu masala eng dolzarb masaladir.

G.N.Volkovning fan sifatidagi ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Etnopedagogika zamonaviy tarbiya va o'qitish metodlarini xalqlarning an'anaviy madaniyati, o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirishga ko'maklashishda, shuningdek, an'anaviy xalq pedagogikasining qimmatli metodlaridan foydalanishda va ularni saqlashda katta amaliy ahamiyatga egadir".

#### **Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:**

1. Etnopedagogika nima uchun fanlararo soha hisoblanadi?
2. Etnopedagogikani o'rganish etnologlar uchun nimaga kerak?
3. Etnopedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.
4. Etnopedagogikaning predmet doirasiga kiruvchi qaysi masalalar etnologiya uchun ham juda muhim hisoblanadi?

5. Etnopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini misollar bilan tushuntiring.
6. Etnopedagogik tadqiqotlarning umumiyligi mantiqiy metodlar va tarixiy metodlarning farqli jihatlarini asoslab bering.
7. Sotsiologik metodlarga qaysilar kiradi?
8. Etnopedagogikaning fan sifatidagi ahamiyati qanday?
9. A.G.Komarovning “Sovet etnografik va pedagogik fanlaridagi «etnopedagogika» tushunchasi haqida” maqolasini o‘qing va mazmunini tushuntiring.

**Mavzu yuzasidan kazus savollariga javob bering!**

**1-Kazus**

G.N.Volkovning fikricha, “etnopedagogika” fan sifatida xalq pedagogikasini tushuntiradi va uni zamonaviy sharoitlarda qo‘llash yo‘llarini tavsiya etadi, etnik guruuhlar tajribalarni yig‘adi va tadqiq etadi”. Olim etnopedagogikaning ob’ekti va predmet doirasi deb quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi: - oilaviy turmush pedagogikasi; - maqollar va naqllar; - topishmoqlar; - xalq qo‘sishqlari; - bolalar ijodi va ular yaratgan qo‘g‘irchoqlar; - bola va o’smirlar muhiti va uning pedagogik funksiyalari; - alla va onalar pedagogikasi, deb ko‘rsatadi. Sizningcha hozirgi zamonaviy sharoitlarda etnopedagogikaning predmet doirasiga yana nimalarni kiritish mumkin, deb o‘ylaysiz?.

**2-Kazus**

G.N.Volkov o‘zining “Etnopedagogika” asarida xalq pedagogikasini tushuntirar ekan etnopedagogikaning ob’ekti va predmet doirasi, deb sanab o‘tgan jihatlarni esga oling va ulardan qaysilari zamonaviy o‘zbek etnopedagogikasining predmet doirasida foydalanilmoqda deb o‘ylaysiz?.

**3-Kazus**

Tarixiy metod tahlil qilinayotgan etnopedagogik hodisaning hozirgi holatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Biz tarixiy rekonstruktsiya o‘tmishdagи pedagogik voqealarni tasavvurda qayta tiklash, deb tushunamiz. Siz bolaligingizda ota-onha va boshqa katta yoshdagи qarindoshlarning tarbiyaviy hatti-harakatlarini tasavvuringizda qayta tiklab

tasvirlang. Tasavvuringiz natijasini A4 qog'ozga so'zlar ketma-ketligida yoki rasm shaklida tasvirlab bering

**Mavzu uchun testlar**

1. Quyidagi ta'rif kimga tegishli? "Etnopedagogika – bu xalq ommasining yosh avlod tarbiyasiga doir tajribalari, ularning pedagogik maslaklari haqidagi, maishiy turmush pedagogikasi, oila, qabila, xalq va millat pedagogikasiga oid fan"

- A) E.R.Xakimovga;
- B) L.N.Berejnovaga
- V) G.N.Volkovga
- G) V.I.Matisga

2. Xalq pedagogikasi qaysi fanining predmetidir?

- A) Etnopedagogikani
- B) An'anaviy pedagogikani
- V) Etnologiyani
- G) Pedagogikani

3. Qaysi olim "yosh avlod etnosotsializatsiyasi yo'llarini aniqlashda etnopedagogikaning dolzarb" soha ekanligini ko'rsatib o'tadi?

- A) G.N.Volkov
- B) L.N.Berejnova
- V) S.V.Kulikova
- G) A.G.Komarova

4. Quyidagilarning orasidan emperik metodga kirmaydiganini belgilang:

- A) diagnostik (suhbat, intervyu, "xotiralarni eslash");
- B) observatsion (oila, xalq hayot faoliyatning turli sharoitlarida kuzatish);
- V) tarixiy pedagogik tahlil va sintez;
- G) dala tadqiqotlari.

5. Qaysi olim tomonidan tarbiyadagi mega, makro, mezo va mikroomillar ko'rsatilgan?

- A) A. V. Mudrik.
- B) L.N.Berejnova
- V) S.V.Kulikova
- G) A.G.Komarova

## **Glossariy**

**Genetik metod** – o‘rganilayotgan hodisalarining kelib chiqishi, sabablari va bosqichlarini aniqlash usuli

**Milliy tarbiya tizimi** – muayyan millatga xos ta’lim va tarbiyalash tizimi

**Pedagogika** – [paidagōogikē] yunoncha – paydagogos so‘zidan olingan, bola yetaklovchi degan ma’noni bildiradi.

**Pedagogikaning predmeti** – pedagogik jarayonning qonuniyatları, prinsiplari, o‘qitish va tarbiya metodlari, vositaları va tashkiliy shakllaridan iborat.

**Pedagogik funksiya** – ta’lim va tarbiya bo‘yicha vazifalarni bajarish

**Tarbiya prinsiplari** – tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va vositalariga qo‘yiladigan talablar

**Eksperiment** – lotincha so‘z bo‘lib, —tajriba, —mahorat, —sinash ma’nosini bildiradi, aniq belgilangan sharoitda pedagogik jarayoni istoh qilishga, o‘zgartirishga qaratilgan ilmiy tajriba.

**Empirik-** amaliyot bilan bog‘liqliq, amaliyotdagi.

**Etnologiya** – etnos bilan bog‘liq barcha jabhalarni tadqiq etuvchi fan

**Etnopedagogika** – etnologiya va pedagogikaning qo‘shilishidan vujudga kelib (yunoncha – ethnoscience va pedagogika ) xalqning tarbiya va ta’lim berish uslubi ma’nosini bildiradi

**Etnopsixologiya** – etnik ong, etnik mansublik, xulq-atvor va o‘zaro ta’sir fenomenologiyasini turli tomonidan o‘rganuvchi fan

**Etnosotsiologiya** – etnik ong, oila, ijtimoiy guruhlar va etnik xulq-atvor kabilarning o‘zaro ta’sirini ijtimoiy aspektda tadqiq etuvchi fan

**Qiyosiy-tarixiy metod** – tarixiy-pedagogik jarayonlar qaytarilishi, qonuniyatlarini aniqlash usuli

### **Mustaqil ish uchun mavzular:**

1. K.J.Kojaxmetovaning etnopedagogik metodologiyasidagi asosiy yo‘nalishlar
2. Etnopedagogikaga sotsiologik tadqiqot usullarini qo‘llash
3. M. Mid va Dj. Uayting kabi amerikalik olimlarning dala tadqiqotlari
4. O‘zbekistonda etnopedagogikani o‘rganish dolzarbliji va vazifalari

### **Adabiyotlar:**

1. Бережнова Л.Н. Этнопедагогика: учебное пособие для студ. высш. учеб. завед. / Бережнова Л.Н., Набок И.Л., Щеглов В.И. – М.: Академия, 2007.
2. Волков Г.Н. Этнопедагогика. – Чебоксари, 1974.
3. Комарова А. Г. О понятии «этнопедагогика» в советской этнографической и педагогической науке // Изучение преемственности этнокультурных явлений. – М., 1980.
4. Кукушин В.С. Этнопедагогика. Учебное пособие. – М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: Изд-во НПО «МОДЭК», 2002.
5. Латышина Д. И. Этнопедагогика: учебник для академического бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2014.
6. Токарев С.А. История зарубежной этнографии. – М.: Высш. школа, 1978.
7. Хакимов Э.Р. Этнопедагогика как наука: предмет, функции, основные категории // Вестник Удмуртского государственного университета. Серия: Психология и педагогика. №9, 2007. – С.42.
8. Этнография детства. Традиционные формы воспитания детей и подростков у народов Восточной и Юго-Восточной Азии. – М.: Наука, 1983
9. Этнография детства. Традиционные формы воспитания детей и подростков у народов Передней и Южной Азии. – М.: Наука, 1983.
10. Этнография детства. Традиционные формы воспитание детей и подростков Южной и Юго-Восточной Азии. – М.: Наука, 1988.
11. Этнография детства. Традиционные методы воспитания детей у народов Австралии, Океании и Индонезии. – М.: Наука, 1992.

## 2-mavzu. Xalq pedagogikasi va etnopedagogika

Reja:

1. Xalq pedagogikasi tushunchasi
2. Etnopedagogikaning fan sifatidagi asosiy prinsiplari
3. Etnopedagogika va xalq pedagogikasi tushunchalari


yuzasidan turli ta'riflar

### I. Xalq pedagogikasi tushunchasi

Oldingi mavzuda xalq pedagogikasi etnopedagogikaning predmeti ekanligini tushunib oldik. Ammo xalq pedagogikasini etnopedagogika bilan sinonim sifatida qo'llash holatlari xam buladi. Hozirga qadar etnopedagogikaga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham "etnopedagogika", "xalq pedagogikasi", "an'anaviy pedagogika" tushunchalari o'rtaсидagi farq aniq ajratilmay qo'llaniladi.

Xalq pedagogikasi termini ilk marotaba 1947 yil Ye.N.Medinskiy tomonidan o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. 1966 xalq pedagogikasi termini entsiklopediyaga kiritildi va unga "xalq ommasining tarbiya maqsadi va vazifalariga oid xalqona qarashlarida ustunlikka ega bo'lган, xalq ta'lim va tarbiya ko'nikma hamda malakalarining vositalari yig'indisi sifatidagi emperik bilimlari va tajribasi sohasi", deb izoh berildi.

Xalq pedagogikasining fan sifatida rivojlanishida va bu tushunchaning mazmuni ta'riflanishida G.S.Vinogradov, O.A.Kapitsa, G.N.Volkovlarning xizmati katta. Xususan, G.S.Vinogradov bolalar folkloriga oid tadqiqotlar olib borar ekan "bolalar olami"ning o'ziga xos tomonlariga e'tibor qaratdi va uni etnografik fanlarning mustaqil tarmog'i sifatida ajratish hamda o'rganish vazifasini qo'ydi. G.S.Vinogradov bola hayotining turli aspektlari: xalqona bolalar taqvimi, bolalarning satirk lirikasi, bolalarning yashirin muloqot tili, bolalar folklori va boshqa shu kabilarni tadqiq etishga qiziqdi hamda bu masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib bordi. U o'z ishining nazariy qismida "bolalik etnografiyasi" va "xalq pedagogikasi" tushunchalarini bir-biridan ajratadi va shu o'rinda xalq pedagogikasi tushunchasini ham izohlab o'tadi. Olimning fikricha, "xalq pedagogikasi" muayyan shaxsni shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan malaka va usullar jamlanmasi – ya'ni bilim



hamda tajribalarning umumiy yig‘indisidir. “Bolalik davri etnografiyası” esa bevosita bolalar bilan bog‘liq bo‘lib, bolalar muhitida paydo bo‘ladigan va amal qilinadigan submadaniyatning barcha elementlarini o‘z ichiga oladi. Ayni paytda bu ham ikki davrga bo‘linadi: kattalar hayot faoliyatida yosh avlodning ulg‘ayish jarayoni, ya’ni madaniyatga oid tajribalar vorisi bo‘lish va ularni o‘zlashtirishga kirishish, ya’ni madaniy merosni bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tkazilishi.

G.N.Volkov xalq pedagogikasi tushunchasiga ikki tomonlama yondashadi: bir tomonidan xalqqa manzur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni tarkib toptirish uchun qo‘llanadigan pedagogik malaka va uslublar, ta’lim va tarbiya vositalari va yo‘llari, maqsad va vazifalari jamlanmasini ko‘rsa, boshqa tomondan, o‘z farzandlarini maktabda o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mehnatkashlar ommasi foydalangan tarbiya masalasiga doir emperik ma’lumotlar va bilimlar yig‘indisi sifatida talqin etadi.

Umuman “xalq pedagogikasi” atamasini izohlashda uch yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin: birinchi yondashuv XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida qaror topgan etnografik yondashuvdir. Ikkinchisi ijtimoiy hayotning har qanday ko‘rinishini ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar o‘rtasidagi kurash tarzida talqin qiluvchi sotsiologik yondashuv bo‘lsa, uchinchisi, xalq pedagogikasini vazifasiga ko‘ra hisobga oladigan funksional yondashuvdir.

Qayd etish lozimki, xalq ta’lim tarbiya jarayoniga, uning jarayonlariga amaliy nazar bilan qaraydi. SHuning uchun ham xalq pedagogikasi g‘oyalari shaklida emas, urf-odatlar, an‘analar, amallar, udumlar, etiketlar tarzida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek pedagogi A.R.Sohibov xalq pedagogikasini aslida pedagogika haqidagi qarashlar yig‘indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo‘lgan va bajarilishi ko‘pchilik tomonidan nazorat qilinadigan ko‘nikmalar, maishiy turmush etiketlari majmuidir, deb belgilaydi. Uning fikricha, xalq pedagogikasining yana boshqa jihatlari uning muallifi anonim ekanligi, sinkretik qorishiq ekanligi va keng yoyilganligi, deb ko‘rsatiladi. Tadqiqotchi o‘zbek xalq pedagogikasini shartli ravishda quyidagi tarzda taxminiy yo‘nalishlarga bo‘ladi: shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga; farzandning ota va onaga munosabatini tartibga solishga qaratilgan, maishiy turmush tartiblarini ta’minlashga

yo‘naltirilgan amallar (ovqatlanish, so‘zlashish, kiyinish, jamao orasida o‘zini tutish); gender munosabatlardagi tartiblar. SHu o‘rinda A.R.Sohibov: “xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchining xohish irodasi inobatga olinmaydi, talablarning bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadi, ... xalq pedagogikasining muhim jihatni uning muayyan etnik birlik turmush tarzida namoyon bo‘lishidadir” - degan fikrlarni ilgari suradiki, bu fikrga qo‘shilish mumkin. Uning yana bir asosli fikri xalq og‘zaki ijodi haqida bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodini xalq pedagogikasining bir turi emas, balki, xalq pedagogikasi uchun ayrim o‘rinlarda vosita maqomida keladi, xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasi uchun manbalardan biri - deb hisoblaydi. U bu fikri bilan folklorni tarbiya usuli sifatida tadqiq etgan ko‘plab pedagoglarga qarshi chiqadi. Tadqiqotchining bu g‘oyasi etnos va bola tarbiyasi o‘rtasidagi aloqadorlikni etnologik aspektda tadqiq etish zarurligini asoslashiga imkon beradi. Ammo muallif Qur’on va hadislarning muallifi aniq bo‘lgani tufayli xalq pedagogikasi turiga kirmaydi deb hisoblaydiki, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi, Qur’on va hadislardagi musulmon xalqlar oldiga qo‘yilgan talablar va ilgari surilgan g‘oyalar islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlarning turmush tarziga singib ketgan, amal qilishi majburiy bo‘lgan an’analardir.

2. *Etnopedagogika va xalq pedagogikasi tushunchalari yuzasidan turli ta’riflar.* Xalq pedagogikasi mazmuniga oid boshqa yondashuvlar ham bor. Bu masalada ko‘p izlanishlar olib borgan B.O.Qodirovning fikricha, “aksariyat hollarda an’analar muhim tarixiy hodisalardan paydo bo‘lib, ular avlodlar ongiga mahkam o‘rnashib, omma tomonidan qabul qilinadi va hamma uchun etalonga aylanib, unga rioya etish ayni xalqqa mansublikni anglatadi”. Yana bir yondashuvga ko‘ra, “xalq pedagogikasi sotsializatsiyaning an’anaviy shakllari tushunchasiga sinonim sifatida ham ishlataladi. Ya’ni, sotsializatsiyaning an’anaviy shakllari, deganda xalq an’anaviy maishiy madaniyatida juda chuqur ildiz otgan munosabatlar va institutlar nazarda tutiladi.

V.S.Kukushin “xalq pedagogikasi” va “etnopedagogika” tushunchalarini bir-biridan ajratib tavsiflashga harakat qiladi. Uning fikricha, “xalq pedagogikasi”si – “konkret etnik guruhning tarbiyaviy an’analarini anglatuvchi”, “etnopedagogika” tushunchasi esa – “turli

xalqlar tarbiyaviy an'analarining umumiy va qiyosiy tahlilini anglatuvchi tushunchadir". Uning nazarida birinchisini o'rganish etnografiya orqali, ikkinchisini o'rganish esa – pedagogika orqali amalga oshiriladi. Demak, V.S.Kukushkinding fikricha, etnologlar faqat xalq pedagogikasini o'rganishlari mumkin, turli xalqlar tarbiyaviy an'analarini tahlil qilish esa faqat pedagoglarning vazifasiga kiradi. Ammo bizning fikrimizcha bu qarash to'g'ri emas. Etnologlar etnos hayotining barcha jihatlarini, shuningdek, moddiy madaniyatini va ma'naviy madaniyatini ham, turmush tarzi hamda an'analarini ham tadqiq etadilar. Tarbiyaviy an'analar xalq ma'naviy madaniyati va turmush tarzining ajralmas qismidir. SHuning uchun etnopedagogikani tadqiq etish etnologlarning ham vazifasiga kiradi. Biz bu haqidagi fikrlarimizni keyingi o'rnlarda yana davom ettiramiz.

G.N.Volkovning fikricha, etnopedagogika xalq ommasining yosh avlod tarbiyasi tajribalari, ularning pedagogik qarashlariga doir, turmush tarziga oid va oila, urug', qabila, millat haqidagi fandir. Etnopedagogika tarixiy shart-sharoit ta'sirida shakllangan milliy tarbiya tizimi orqali saqlanayotgan va xalqning pedagogik madaniyati bilan birga evolyutsiyaga uchrayotgan milliy xarakter xususiyatlarini o'rganadi. SHuningdek, etnopedagogika pedagogika fani bilan xalq pedagogikasi o'rtasidagi aloqadorlikni sinchiklab o'rganadi, bunda bir tomonidan, etnik xususiyatlar tadqiq etiladi, boshqa tomonidan, xalq pedagogik madaniyatining umumiyligi aniqlanadi.

G.N.Volkov etnopedagogikaning "oltin qoidasini" shunday ifodalaydi: tarixiy xotirasiz an'ana yo'q, an'anasiz madaniyat yo'q, madaniyatsiz tarbiya yo'q, tarbiyasiz ma'naviyat yo'q, ma'naviyatsiz shaxs va shaxs bo'lmasa xalq bo'lmaydi. Olim to'g'ri qayd etganidek, har bir element – tarixiy xotira, an'ana, madaniyat, tarbiya, ma'naviyat, shaxs, xalq (millat) – etnik tusga ega. Markaziy elementlar madaniyat va tarbiya bo'lib, qolganlari ular atrofida birlashadi.

Etnopedagogikani umumiy va bir butunlikda xalq tarbiyasining nazariysi va tarixi sifatida tasvirlash mumkin. Etnopedagogika ijtimoiy normalar, qadriyatlar, tajribalarni, shaxs tarbiyalanadigan, o'sadigan o'zaro sotsial aloqadorlik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish jarayonini o'rganadi. Umuman etnopedagogika – bu xalq ommasining yosh avlod tarbiyasiga doir tajribalari, ularning pedagogik maslaklari haqidagi, maishiy turmush

pedagogikasi, oila, qabila, xalq va millat pedagogikasiga oid fandir. Xalq pedagogikasi esa bu fan emas, balki etnopedagogika fanining predmetidir.

M.X.Malsagova “Agar pedagogikaning predmeti tarbiya bo‘ladigan bo‘lsa, u holda etnopedagogikaning predmeti – milliy (etnik) tarbiyadir” – deydi. I.A.Lipskiy, L.V.Mardaxaev, N.I.Nikitina kabi ko‘plab tadqiqotchilar ham shunday pozitsiyada bo‘lganlar. Etnologiyani predmeti (etnik jamoa tarbiya tizimi, marosimlari urf-odatlari, e’tiqodi, demografik jarayon, hayot faoliyat) etnopedagogik tadqiqotga tadbiq etiladi. Etnologiyada bo‘lgani kabi etnopsixologiyada ham etnik ong, etnik mansublik, xulq-atvor va o‘zaro ta’sir fenomenologiyasi turli tomonidan o‘rganiladi. Aynan shu hodisalarini ijtimoiy aspektda etnosotsiologiya izohlaydi. Xalqlarning moddiy madaniyati va madaniy qadriyatlarini o‘rganish madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilishi mumkin. Bu shuni isbot qiladiki, etnopedagogika – bu metodologik asosi etniklikka yo‘naltirilgan inson va jamiyat haqidagi fanlararo ilmiy yo‘nalishdir.

I.V.Demichevning fikricha, etnopedagogika avvalo jamiyat doirasida shaxs shakllanishini ta’minlaydigan tarbiya masalalariga tegishlidir. Tarbiya jamiyat va madaniyat ishlab chiqarishini asosiy omillaridan biridir. Chunki tarbiyaga nafaqat kishilar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar, balki, shu bilan birga, inson faoliyatining jamiyatdagi barcha jabhalari: uning qadriyatlar mo‘ljali, moyilligi, xulq-atvor tipi va boshqalar ham bog‘liqdir.

Etnologlardan A.G.Komarovaning ko‘rib chiqilayogan tushunchalarga bergen ta’rifi e’tiborga sazovor. Unga ko‘ra, “etnopedagogika” termini “xalq pedagogikasi”ga nisbatan kengroq, teranroqdir va tarbiya jarayoni xalq pedagogikasining o‘rganish predmeti bo‘lib, sotsializatsiyaning bir qismini tashkil etadi. Muallifning fikricha, “etnopedagogika “shaxs sotsializatsiyasi jarayoni qonuniyatlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, o‘z e’tiborini bu jarayonning turli madaniyat va jamiyatlardagi etnik xususiyatlarga qaratadi”.

S.V.Kulikovaning nuqtai nazariga ko‘ra, “etnopedagogika – xalq tarbiyasi va xalq pedagogikasini o‘rganadigan fan; etnopedagogika – xalq pedagogik madaniyatini va uning milliy o‘z-o‘zini anglashini tashkil qiladi. Birinchi ta’rif etnopedagogikani alohida nazariy-metodologik soha sifatida ajratadi. Bu yerda u xalq pedagogikasi bilan fan va uning predmeti

sifatida bog‘lanadi. Ikkinchasi aspektida etnopedagogika etnos unikalligini yaratuvchi, saqlovchi va uzatuvchi etnomadaniy ta’lim-tarbiyaviy komponent sifatida maydonga chiqadi. SHu bois, xalq pedagogikasi vositalarini o‘zlashtirish va amalda foydalanish talab qilinadi.

Aksariyat xalq pedagogikasi olimlar tomonidan xalqning tarixiy va ijtimoiy tajriba hosili sifatida avloddan-avlodga asosan og‘zaki tarzda o‘tadigan, tajribadan o‘tgan, sinalgan bilimlar, malakalari yig‘indisi sifatida talqin etiladi. S.V.Kulikovaning fikricha, milliy ta’lim mazmuni umumadaniy va etnik komponentlar uyg‘unligiga quriladi, milliy ta’lim maqsadlarini xalq pedagogikasi shakl, metod va vositalarisiz amalga oshirish mumkin emas. SHundan xulosa qilish mumkinki, ta’lim etnik komponentining o‘zagi etnopedagogikadir.

V.A.Vakaevning falsafiy yondashuviga ko‘ra, “etnopedagogika” tushunchasi ikki mazmunini ajratiladi: – xalqning butun tarixi davomida ishlab chiqilgan ta’lim va tarbiya mazmuni, metodi, usullari, mazkur etnos uchun qimmatli bo‘lgan shaxs sifatlarini maqsadli ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan qadriyatlarga bo‘lgan ma’nnaviy-etik va estetik qarashlar sistemasi; – bu sistemani tadqiq etadigan fan. Uning belgilashicha, bu tushunchaning birinchi mazmuni ijtimoiy falsafiy soha tahliliga tegishlidir. Uning sinonimi sifatida “xalq pedagogikasi”, “xalq tarbiyasi”, “xalq a’naviy tarbiyasi” terminlari ishlatiladi.

K.Pirliev etnopedagogikani pedagogik fanlarning maxsus sohasi sifatida belgilaydi. Uning qayd etishicha, etnopedagogika pedagogik madaniyatni yaratayotgan xalq ommasining rolini, tarbiya borasidagi xalqning g‘oyalari va an’analari, o‘ziga xos tajribasini o‘rganadi.

Qisqasi, keltirilgan ma’lumotlardan bir-biriga mazmunan yaqinroq bo‘lgan ta’riflar bo‘yicha umumlashtirib, 1980 – 1990-yillarda paydo bo‘lgan “etnopedagogika” va “xalq pedagogikasi”, kabi ilmiy terminlarning mazmuni bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin: – birinchi yo‘nalishda tushunchalar ethnospetsifik mazmunga egadir. Unga ko‘ra “etnopedagogika – fan”, “xalq pedagogikasi esa – xalqning yosh avlod tarbiyasi tajribalaridir” (G.N. Volkov, R.K. Dyusembinova, K.B. Jarikbaev, S.K. Kaliev, K.J. Kojaxmetova, V.N. Nikolaev, S.A. Uzakbaeva, G.M. Xrapchenkov va boshqalar; ikkinchi yo‘nalish sinfiy yondashuv bo‘lib, unga ko‘ra “xalq pedagogikasi” – “xalq ommasining